

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHAMSUDINOVA IXBOL BAXOVADINOVNA**

**O‘ZBEK TILI MILLIY KORPUSIDA YORDAMCHI SO‘ZLAR BAZASI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Termiz – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Shamsudinova Ixbol Baxovadinovna**

U‘zbek tili milliy korpusida yordamchi so‘zlar bazasi.....3

**Шамсудинова Ихбол Баховадиновна**

База данных вспомогательных слов национального корпуса узбекского  
языка.....27

**Shamsudinova Ikhbol Bakhovadinovna**

Database of auxiliary words in the national corpus of the Uzbek language.....53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....57**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHAMSUDINOVA IXBOL BAXOVADINOVNA**

**O‘ZBEK TILI MILLIY KORPUSIDA YORDAMCHI SO‘ZLAR BAZASI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Termiz – 2025**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.3.PhD/Fil1943 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) ilmiy kengash veb-sahifasining ([www.termdu.uz](http://www.termdu.uz)) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Mengliyev Baxtiyor Rajabovich  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi  
filologiya fanlari doktori, professor

Azimov Inomjon Mamasodiqovich  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «4» 13UN soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (301 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «21» may kuni tarqatildi.  
(2025-yil «21» may dagi 63 raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh. Maxmaralimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**Z. Umurqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**P. Bakirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida tilning elektron tizimdagi bazalarini yaratish, ta'limda onlayn ilovalardan foydalanishda qulaylik yaratish borasida korpusga asoslangan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kompyuter lingvistikasi sohasida tabiiy tilni qayta ishlash va uning lingvistik bazalarini yaratish yuqori ahamiyat kasb etmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tilning lisoniy modellarini yaratish, til va nutq bilan bog'liq muammolarni turli dasturiy vositalar asosida hal etishning zarurati lingvistika sohasini kompyuter bilan integratsiyasini qo'llashning dolzarbligini ko'rsatib berdi.

Dunyo tilshunosligida matematik lingvistika va uning korpusini yaratishga bo'lgan ehtiyoj va uning muammolari XX asrning birinchi yarmida boshlandi va tilshunoslikka sun'iy intellekt, avtomatik tarjima, tahlil, elektron lug'at kabi terminlar kirib keldi. Tilni lingvistik modellashtirishga bo'lgan ehtiyoj undagi mavjud barcha birliklardan, jumladan, yordamchi so'zlardan ham foydalanishni talab qildi. Shuning uchun yordamchi so'zlar lug'atini tuzish va uni elektronlashtirishga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Bu o'z navbatida, til birliklarining yashovchanlik imkoniyati oshishiga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida ham tilning davlat tili sifatidagi mavqeyini kuchaytirish, uning sofligini saqlash, zamonaviy kommunikatsion qurilmalar bilan integratsiyalashuvi muammolarini hal etish uchun til korpuslarining lingvistik ta'minotini yaratish masalasidagi tadqiqotlarga yo'l ochib berildi. Muhtaram Prezidentimizning: "Yoshlarimiz turli ma'lumotlarni asosan internet va ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda. Binobarin, ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o'zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug'atlarni yaratish kerak. Internet imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, o'zbek tilini keng targ'ib etish bo'yicha ishlarimizni kuchaytirishimiz lozim"<sup>1</sup>, degan fikrlari mazkur tadqiqotlarning davlat ahamiyatiga molik masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, o'zbek tili milliy korpusining yaratilishi sohadagi ishlarning amaliy natijasidir. Shuningdek, yordamchi so'zlarning lingvistik ta'minotini mukammallashtirish uchun uning elektron bazasini yaratish o'zbek tilining dunyo miqyosida o'rganilishida muayyan darajada xizmat qiladi. Bizning tadqiqotimiz ana shu maqsadlarni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6080-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 117-sonli "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va shu faoliyatga oid boshqa me'yoriy hamda huquqiy

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. (O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq) // "Xalq so'zi" gazetasi. – Toshkent, 2019. – № 218.

hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot ishi respublikamizda til siyosatining amaldagi tatbiqi va axborot kommunikatsion tizimni rivojlantirish va qo‘llashning “axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli dasturga mos yozilgan va tatbiq etilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida yordamchi so‘zlarning lingvistikadagi o‘rni va grammatik talqini yuzasidan bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, ingliz va qo‘miq tilida A.Greyeva, rus tilida G.Kreydlin, noxchiyn tilida F.Ozdoyeva, rus-slavyan tilida T.Nikolayeva, darg‘in tilida Z.Musayeva, ozar tilida N.Manafov, qozoq tilida F.Kenjebayeva, boshqird tilida X.Sultanbayevalarning ishlarida yordamchilarning so‘z turkumlari tizimidagi o‘rni aniqlangan<sup>2</sup>. Hozirgi turkiy tillarda yordamchi so‘zlarning leksik-grammatik xususiyatlari F.Zeynalov<sup>3</sup>ning ilmiy izlanishlarida yoritib berilgan. Rus tilidagi yordamchilarning sheva va dialektik funksiyalarini O.Volgina<sup>4</sup> tadqiq qilgan.

O‘zbek tilshunosligida yordamchi so‘zlarning so‘z turkumi sifatidagi grammatik-funksional xususiyatlari yuzasidan A.Kononov, Sh.Shoabdurahmonov, R.Rasulov, H.Berdiyorov, J.Muxtorov, T.Rustamov, O.Bozorov, A.Matg‘oziyev va D.O‘rinboyevalarning ishi alohida e‘tirof etiladi<sup>5</sup>.

Yordamchi birliklarning funksional-semantik va pragmatik tahlili bo‘yicha U.Rahimov, T.Turdiboyev, Z.Isoqov, Z.Burxanov, A.Pardayevlarning ishlari ahamiyatga molikdir<sup>6</sup>. “Til sathida mustaqil so‘zlarning shakllanishi, bir-biridan

---

<sup>2</sup> Герева А. Служебные слова в кумыкском и английском языках: послелого и союзы: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Махачкала: ДагГПУ, 2004. 22 с.; Крейдлин Г. Служебные слова в русском языке: Дис. ...канд. филол. наук. – Москва: МГУ, 1979. 301 с.; Николаева Т.М. Функции частиц в высказывании (на материале славянских языков). – Москва: Наука, 1985. – 168 с.; Мусаева З. Служебные части речи в даргинском и английском языках: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Махачкала: ДагГПУ, 2010. – 22 с.; Манафов Н. Служебные части речи в диалектах и говорах азербайджанского языка: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Баку: БГУ, 1995. – 28 с.; Оздоева Ф. Служебные части речи в нахских языках: Дис. док-ра. филол. наук – Грозный: ГДУ, 1982. – 376 с.; Кенжебаева Ф. Послелого и частицы в современном казахском языке: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Алма-Ата: ИЯ, 1964. – 28 с.; Султанбаева Х. Служебные слова в системе частей речи башкирского языка: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – УФА: БашГУ, 2008. – 54 с.

<sup>3</sup> Зейналов Ф. Служебные части речи в современных тюркских языках: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Баку: БГУ, 1966. – 82 с.

<sup>4</sup> Волгина О. Служебные слова в нижегородских говорах: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Арзамас: ВятГГУ, 2008. – 20 с.

<sup>5</sup> Кононов А. Послелого в современном узбекском литературном языке. – Ташкент, 1951. – 48 с.; Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1953. – 24 б.; Расулов Р. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзларнинг семантик-грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1983. – 112 б.; Бердиёров Ҳ. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида сўнг кўмакчилар: Филол. фан. номз. .... дисс. – Самарқанд, 1949. – 14 с.; Рустамов Т. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўмакчилар. – Тошкент: Фан, 1965. – 131 б.; Рустамов Т. Соф кўмакчилар. – Тошкент: Фан, 1991. – 124 б.; Базаров О. Частицы в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва: ИЯ, 1983. – 22 с.; Матғозиев А. Ўзбек тилида эргаширувчи боғловчиларнинг тараққиёт тарихи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1966. – 259 б.; Ўринбоева Д. Ўзбек сўзлашув нуткида ўзгармайдиган сўзлар (ёрдамчи сўзлар): Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1994. – 150 б.

<sup>6</sup> Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 23 б.; Турдибоев Т. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: ТАИ, 1996. – 21 б.; Исақов З. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона: ФарДУ, 2005. – 22 б.; Бурханов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиқлар прагматикаси (пресуппозицион аспект): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –

farqlanishi qanday murakkab ruhiy-lingvistik jarayon bo'lsa"<sup>7</sup>, "...yordamchi so'zlarning paydo bo'lishi va til sathida mustahkam o'rinish aloqaga kirishishi ham murakkablikda undan kam bo'lmagan, hatto undan ham murakkabroq taraqqiyot mahsulidir"<sup>8</sup>. Kishilik jamiyatida mustaqil so'zlarning paydo bo'lishi, tuzilishi va semantik hosila ma'nolar kasb etishi, ma'no torayishi kabi o'zgarishlari uzoq tarixiy munosabatlar mahsuli bo'lgani kabi yordamchi so'zlarning paydo bo'lishi ham murakkab tizimiy aloqalar natijasidir. Shu sababdan yordamchi birliklarni mustaqil so'zlardan ajratgan holda tadqiq etish mumkin emas. Tilshunoslikda yordamchi so'zlar borasida olib borilgan izlanishlarda ularning so'z turkumi sifatida grammatik xususiyatlari, paydo bo'lish tarixi bir qadar tatbiq obyekti sifatida talqin etilgan bo'lsa ham elektron lug'ati yaratilmagan va ma'lumotlar bazasida chastotasi aniqlanmagan. Shu jihatdan ushbu tadqiqot ishi dolzarblik kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Ushbu dissertatsiya ishi Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasidagi "O'zbek amaliy tilshunosligi: kompyuter lingvistikasi va matn korpuslari, badiiy matnning lingvistik tahlili, etnolingvistika, antropotsentrik tilshunoslik, lingvistik ekspertiza" bo'limiga oid bandlar yuzasidan mavjud muammolar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Ushbu dissertatsiyaning maqsadi yordamchi so'zlarning O'zbek tili Milliy korpusi negizidagi elektron ilovasini tuzish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklamaning statistik chastotasini aniqlash va ularni korpus va boshqa lingvistik bazalarda teglashning nazariy jihatlarini tahlil qilishdir.

**Tadqiqotning vazifalariga quyidagilar kiradi:**

o'zbek tilidagi matnli ma'lumotlardan inson fikrining hissiy tomonlarini aniqlaydigan avtomatik tizimni yaratishda yuklamalarni sentiment tahlilga tortish masalalarini dalillash;

o'zbek tilida turli uslublarga xos matnlardagi mavjud barcha yordamchi so'zlarni tahlilga tortish orqali ularning eng faollarini shakllantirish va chastotali ko'rsatkichlarini aniqlash;

ona tilini o'qitishda yordamchi so'zlarning o'rgatilishini samarali tashkil etish maqsadida hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning elektron platformasini yaratish;

yordamchi so'zlarning dasturiy ta'minotini yaratish va til korpuslari, subkorpuslarga kiritishda mashina tarjimasining muammolarini bartaraf etishga ko'mak beruvchi morfologik razmetkalarning lingvistik modellarini ilmiy asoslash hamda uslubiy xoslanishi, mazmuniy guruhlarini tadqiq etish.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** 2020-yil A.Madvaliyev tahriri ostida nashrdan chiqqan 5 tomlik 80000 so'zli "O'zbek tilining izohli lug'ati", yordamchi so'zlar yuzasidan qilingan tadqiqotlar va boshqa lug'atlar tanlandi.

---

Тошкент: ТАИ, 2008. – 26 б.; Пардаев А. Ҳозирги ўзбек тилида кўмакчиларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. ном...дисс.автореф. – Самарқанд, 2005. – 25 б.

<sup>7</sup> Ширинова Н. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 23 б.

<sup>8</sup> Черкасова Е. Переход полных слов в предлоги. – Москва, 1967. – 141 с.

**Tadqiqotning predmeti** o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlarning onlayn veb-ilovasini tuzish, elektron baza va korpuslar tarkibiga joylash prinsiplari va o‘zga til vakillari uchun yordamchi so‘zlarning eng faollarini taqdim etish uchun chastotasini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda statistik tahlil, tematik-uslubiy tasnif, chastotali aniqlik va ilmiy asoslash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilidagi matnli ma’lumotlardan inson fikrining hissiy tomonlarini aniqlaydigan avtomatik tizimni yaratishda yuklamalarni sentiment tahlilga tortish masalasi dalillangan;

o‘zbek tilida turli uslublarga oid 20000 so‘zli matnlardagi barcha yordamchi so‘zlarni tahlilga tortish orqali eng faol yordamchi so‘zlar aniqlangan va ularning chastotali statistikasi shakllantirilgan;

ona tilini o‘qitishda yordamchi so‘zlarning o‘rgatilishini samarali tashkil etish maqsadida hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarning elektron <https://auxwords.uz/> qidiruv bazasi yaratilgan;

yordamchi so‘zlarning dasturiy ta’minotini yaratish va til korpuslari, subkorpuslarga kiritishda mashina tarjimasining muammolarini bartaraf etishga ko‘mak beruvchi morfologik razmetkalarining lingvistik modellari taklif etilgan hamda <https://auxwords.uz/> qidiruv bazasida 434 ta yordamchi so‘zning uslubiy xoslanishi, mazmuniy guruhlari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Dissertatsiyaning amaliy natijasi 434 ta yordamchi so‘zlarning foydalanish tekin taqdim etilgan <https://auxwords.uz/> veb-dasturiy lug‘atida ko‘rinadi. Shuningdek, yordamchi so‘zlarni markerlash qoidalari, chastotasining aniqlanganligi, onlayn lug‘atni yaratishning amaliy ahamiyati, korpuslarning lingvistik ta’minoti sifatida elektron lug‘atdan foydalanishning nazariy jihatlari asoslanganligi ham tadqiqotning amaliy natijasini belgilaydi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotning ishonchliligi Python v3.2 (Django v4.1.5) HTML SASS/CSS (Bootstrap v5), Javascript (React v18.2.0) dasturlash tillari SQLite ma’lumotlar bazasida yaratilgan va O‘zbekiston Respublikasining Dasturiy mahsulotlar davlat reyestrda “Yordamchi so‘zlar” nomi bilan 2024-yil 14-mayda ro‘yxatga olingan va foydalanish uchun taqdim etilgan veb-dasturiy onlayn platformasi va dissertatsiyada keltirilgan ilmiy nazariyalarning lingvistik bazalar, korpusga oid tadqiqotlar hamda o‘zbek tilining grammatik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda asosli keltirilganligi, <https://auxwords.uz/> onlayn lug‘atini yaratishda ilmiy asoslangan manbalarga tayanilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya korpus va subkorpuslar, Google tarjima dasturlari, leksikografik izlanishlar, amaliy tilshunoslik, lingvistik ekspertiza va ta’limiy korpuslar uchun ilmiy-nazariy manba bo‘la olishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan taqdim etilayotgan onlayn yordamchi so‘zlar bazasidan amaliy tilshunoslikka oid fanlarni o‘qitish, undan ta’limning innovatsion yutuqlari sifatida foydalanish, “Tabiiy tilni qayta ishlash” (NLP-natural language processing), “Leksikografiya” hamda “Kompyuter lingvistikasi”ga taalluqli metodologik izlanishlarda qo‘llashning amaliy ahamiyati e’tirof etiladi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

O‘zbek tilida yordamchi so‘zli lingvistik konstruksiyalarni formallashtirish algoritmiga doir nazariy va statistik ma’lumotlar yoritilgan ushbu dissertatsiya natijalaridan va <https://auxwords.uz/> yordamchi so‘zlarning onlayn lug‘atidan “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” nomli 2019-2022 yillarda amalga oshirilgan amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 12-fevraldagi №04/1-346-sonli ma’lumotnomasi). Natijada til korpuslari va turli ma’lumotlar bazasi uchun yordamchi so‘zlar bazasidan lingvistik ta’minot sifatida foydalanishning amaliy jihatlari asoslangan.

Dissertatsiyaning yordamchi so‘zlardan nutqiy kommunikativ jarayonda foydalanish, uning uslubiy xoslanishi va chastotaviy tahlili haqidagi nazariy xulosalaridan “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan PZ-2020042022 grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida loyihalarni bajarishda foydalanilganligi to‘g‘risidagi 2024-yil 13-maydagi №04/1-1239 sonli ma’lumotnomasi). Dissertatsiya xulosalarini qo‘llash amaliy loyiha doirasidagi izlanishlar natijasida yozilgan ilmiy maqolalar mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, dissertatsiya mavzusiga oid ilmiy xulosalardan Surxondaryo milliy teleradiokompaniyasining “Ta’lim va taraqqiyot”, “Til – millat ko‘zgusi”, “Kun mavzusi” ruknidagi teleko‘rsatuv, davra suhbatlari va ma’naviy-ma’rifiy tok shou ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. Ushbu ko‘rsatuvlar orqali o‘zbek tili milliy korpusining axborotlashgan tizimdagi o‘rni, ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanishdagi mohiyati ochib berilgan. (Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 20-iyundagi №01-01/43 sonli ma’lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 14 ta ilmiy maqola va tezislari chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy

ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Yordamchi so'zlar bazasining umumiy xarakteristikasi va amaliy ahamiyati" deb nomlangan birinchi bobida jahon va o'zbek tilshunosligida yordamchi so'zlarning o'rganilish tarixi tahlil qilingan, yordamchi so'zlarni o'rganishning nazariy asoslari ko'rsatib berilgan. Mazkur tadqiqotlarning asosan qaysi yo'nalishda olib borilganligini quyidagi jadvallarda berdik.

### 1.1-jadval

#### Yordamchi so'zlarning rus tilshunosligida o'rganilishi

№	Tadqiqotchi olim	Tadqiqot ishida yoritilgan yo'nalish	Tadqiqot obyekti
1	Getmanskaya M.	Bog'lovchi so'zlarning sintaktik statusi	Bog'lovchilar
2	Kiyamova M.	A.S.Pushkin tilida ko'makchilar korpusi	Ko'makchilar
3	Priyatkina A.	Sodda gaplarda bog'lovchili konstruksiyalarni qatnashishi	Bog'lovchilar
4	Svetlishev D.	Emotsional-ekspressiv yuklamalarning tarkibi va funksiyasi	Yuklamalar

### 1.2-jadval

#### Yordamchi so'zlarning turkologiyada o'rganilishi

№	Tadqiqotchi olim	Tadqiqot ishida yoritilgan yo'nalish	Tadqiqot obyekti
1	Zeynalov F.	Hozirgi turkiy tillarda yordamchi so'z turkumlari	Barcha turdagi yordamchi so'zlar
2	Sayargaliyev V.	Turkiy tillarda yordamchi so'zlarni farqlashning nazariy masalalari va funksional xususiyatlari	Barcha turdagi yordamchi so'zlar
3	Shilxanova A.	Turkiy tillarda yordamchi so'zlarni farqlashning nazariy masalalari va funksional xususiyatlari	Bog'lovchilar

### 1.3-jadval

#### Yordamchi so'zlarning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi

№	Tadqiqotchi olim	Tadqiqot ishida yoritilgan yo'nalish	Tadqiqot obyekti
1	Rasulov R.	Yordamchi so'zlarning semantik-grammatik xususiyatlari	Yordamchi so'zlar
2	Muxtorov J.	Hozirgi o'zbek tilida bog'lovchilar	Bog'lovchilar
3	Turdiboyev T.	O'zbek tilida yordamchi so'zlar konversiyasi	Barcha turdagi yordamchi so'zlar
4	Matg'oziyev A.	Ergashtiruvchi bog'lovchilarning tarixiy shakllanishi	Bog'lovchilar
5	Berdiyev H., Kononov A., Rustamov T.	Ko'makchilarning tobelik vazifasi, ma'no munosabati va tarixiy shakllanishi	Ko'makchilar

6	Shoabdurahmonov Sh.	Yordamchi soʻzlarning grammatik xususiyatlari	Barcha turdagi yordamchi soʻzlar
7	Burxanov Z.	Koʻmakchi va kelishik pragmatikasi	Koʻmakchi
8	Rustamov T.	Sof koʻmakchilarning grammatik xususiyatlari	Koʻmakchilar
9	Bozorov O.	Oʻzbek tilida yuklamalar	Yuklama
10	Oʻrinboyeva D.	Soʻzlashuv nutqida yordamchi soʻzlarning funksional belgilari	Barcha turdagi yordamchi soʻzlar
11	Rahimov U.	Yuklamalarning presuppozitsion ifodasi	Yuklama
12	Isoqov Z.	Soʻz turkumlarining grammatik munosabatlarida yuklamaning oʻrni	Yuklama
13	Pardayev A.	Yordamchi turkumlarning substansial va pragmatik xususiyatlari	Barcha turdagi yordamchi soʻzlar

Tilning leksik bazasida yordamchi soʻzlarning pozitsiyasini aniqlash uchun biz ishimizni oʻzbek tilidagi yordamchi soʻzlarning miqdoriy statistikasini aniqlashdan boshladik. Oʻ.Xoliyorov oʻzbek tilining dastlabki lingvistik bazasini shakllantirish jarayonida taʼlimiy korpus tuzishning lingvistik asoslari haqida tadqiqot olib borib soʻz turkumlarining quyidagi nisbatga egaligini taʼkidladi:

Ot 22599 ta, sifat 7172 ta, son 30 ta, olmosh 182 ta, feʼl 3949 ta, ravish 1856 ta, taqlid soʻz 800 ta, undov soʻz 244 ta, modal soʻz 132 ta, polifunksional soʻz 108 ta, koʻmakchi 106 ta, bogʻlovchi 52 ta, yuklama 45 ta. Leksemalarning jami 37282 ta, shundan 203 ta yordamchi soʻzlar mavjud<sup>9</sup>. Biz 5 jildlik Oʻzbek tilining izohli lugʻati<sup>10</sup>, Oʻzbek tili sinonimlarining katta izohli lugʻati<sup>11</sup>, Oʻzbek tili omonimlarining oʻquv lugʻati<sup>12</sup> va shu mavzuda keyingi yillarda qilingan ilmiy tadqiqotlar<sup>13</sup>ga tayangan holda foydalanuvchilar uchun yordamchi soʻzlarning *auxwords.uz* onlayn lugʻatini tuzdik. Lugʻatga jami 434 ta yordamchi soʻz kiritildi va turlar boʻyicha quyidagi statistikaga ega boʻldi:

Koʻmakchi – 242

Bogʻlovchi – 66

Yuklama – 126

Tadqiqotimizda yordamchi soʻzlarni teglashning matematik modellari haqidagi lingvistik qoidalarni asoslashni ham maqsad qildik. Shuning uchun ishimizda mashina (kompyuter) yordamchi soʻzlarni “tanishi” uchun tuziladigan formulalar haqidagi ilmiy nazariyalarimizni keltirdik. Maʼlumotlar bazasida har bir soʻz uchun bitta belgi birlashtirilishini nazarda tutsak, tilda bitta birlikning bir nechta lugʻaviy maʼno anglatishi muammo boʻladi. Chunki dastur soʻzni bitta shaklda qabul qiladi. Amaliy tilshunoslikda bunday muammolar grammatik qoidalar va soʻzning gap tarkibida anglatgan maʼnosiga qarab aniqlansa, mashina buni xotirasiga kiritilgan formulalar orqali aniqlaydi. Maqsad tarjima dasturining lingvistik taʼminotini yaratish boʻlganligi

<sup>9</sup> Холийоров Ў. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан.фалсафа докт... (PhD) дисс... – Термиз, 2021. – 59 б.

<sup>10</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.

<sup>11</sup> Oʻzbek tili sinonimlarining katta izohli lugʻati. II jildlik. – Toshkent, 2022. – 992 b.

<sup>12</sup> Abduraxmonova N., Abduvahobov Gʻ. Oʻzbek tili omonimlarining oʻquv lugʻati. – Toshkent, 2022. – 548 b.

<sup>13</sup> Пардаев А. Ёрдамчи туркумларнинг субстанциал ва прагматик хусусиятлари. – Тошкент, 2013. – 199 б.

sababli, matn komponentlari, jumladan, yordamchi soʻzlar ham kontekstdagi oʻrniga qarab ajratilsa ijobiy natija beradi. Ayrim mustaqil soʻzlarning yordamchi soʻz vazifasida kelishida tarkibidagi grammatik shakllarni (*ustida, orqasidan, qaramasdan*) kompyuter qanday vazifada qabul qilishi ham maxsus gap modellarini talab qiladi.

Tadqiqotimizda koʻmakchilar 242 ta toʻplandi va umumiy hisobda jami yordamchilarga nisbatan 56% ni tashkil etdi. Izlanishlarimizda koʻmakchining *oʻrin-joy, payt va sabab* maʼnoviy turlari eng koʻp qoʻllanishi aniqlandi. Bu holat uslublar doirasida olib borilganda yuqoridagidek boʻlmasligi ham mumkin. Bogʻlovchilar uyushiq boʻlaklar va gaplar orasida turli mazmuniy munosabatlarni ifodalaydi. Tadqiqot davomida 66 ta bogʻlovchi va 126 ta yuklama tahlil qilindi va ularning matnda mazmuniy munosabatni shakllantirishga koʻra turlari aniqlandi. Tahlil natijalariga koʻra bogʻlovchilar matnda eng koʻp ziddlik va ayirish-chegaralash mazmunini bera oladi. Yuklamalar boshqa yordamchi soʻzlardan bogʻlash xususiyatining yoʻqligi bilan farqlanadi.

Dissertatsiyaning I bob 2-faslida *yordamchi soʻzlarning kompyuter lingvistikasida tutgan oʻrni tahlil qilingan*. Yordamchi soʻzlar matn tarkibida til qoidalariga koʻra murojaat qilish nutqiy aktini shakllantirishi va mazmuniy munosabat ifodalashi uchun ularni oʻrganishda pragmatik yondashuv talab qilinadi. Ular morfopragmatikada grammatik birlik sifatida oʻrganilsa, matn birliklarini bogʻlash va ekspressivlik nutqiy aktini namoyon etishiga koʻra sintaktik pragmatikaning oʻrganish obyekti boʻla oladi. Shu sababli tilning leksik bazasi yordamchi soʻzlarsiz shakllanmaydi. Matndagi soʻz va gaplar grammatik jihatdan koʻmakchi orqali ham, bogʻlovchi orqali ham bogʻlanishi mumkin. Ammo ularning bogʻlanishlar orasida ifodalayotgan maʼnolari turlicha. Bu ularning semantik maʼlumotlar bazasini shakllantirishdagi asosiy xususiyatidir. Yordamchi soʻzni kontekstga solmasak, yaʼni korpusda ifodalanish modelini yaratmasak uning *maʼno tashuvchilik* xususiyati yuzaga chiqmaydi. Shuning uchun biz ishimizda yordamchi soʻzlarning *maʼno tashish modellarini* tuzishni maqsad qildik. Yordamchi soʻzning matnga kiritayotgan mazmunini kompyuter ham (*machine learning*) oʻqiy olishida modellar juda muhim.

Masalan, yordamchi soʻzning *maʼno tashish* xususiyatlarini mashina uchun tanlangan belgilar (POST – koʻmakchi, NOUN – ot, VERB – feʼl uchun ingliz tili grafikasiga oid tanlangan xalqaro belgilar) dan foydalanib modellashtirish namunalarini keltiramiz:

**Koʻmakchi – POST** [*bilan*] koʻmakchisi POST<sub>1</sub> (vosita, holat, birgalik, tenglik maʼnolari).

POST<sub>1</sub> (1) = [vosita], POST<sub>1</sub> (2) = [holat], POST<sub>1</sub> (3) = [birgalik]: *hassa bilan* ochdi, *zavq bilan* oʻqidi, *onasi bilan* shahar aylandi. Shu oʻrinda [*bilan*] koʻmakchisining otlar oʻrtasida kelganda [*va*] bogʻlovchisi vazifasida kelishi haqidagi qoida kiritiladi. Yaʼni, model NOUN+POST+VERB boʻlsa [*bilan*] koʻmakchi, NOUN+POST+NOUN boʻlsa [*va*] bogʻlovchisi vazifasini bajaradi.

**Bogʻlovchi – BOGʻL [CONJ]. Teng bogʻlovchilar.** [*va*], [*hamda*] CONJ (1) teng mazmunli biriktirish: [*men va sen*] PRON + CONJ (1) + PRON yoki [*kitob va daftar*] boʻlganda NOUN + CONJ (1) + NOUN. Bu bogʻlanish qoʻshma gap shaklida boʻlganda oʻzbek tilidagi sodda gapning eng minimal modeli [Wp<sub>m</sub>] kiritiladi (W-atov

birlik, P-predikat, m-marker) Masalan, [O‘qituvchi keldi va dars boshlandi] tipidagi teng bog‘lanish WPm + CONJ (1) + WPm shaklida modellashtiriladi.

Yuklamalar xilma-xil nutqiy jarayonlarda turli-tuman presuppozitsiyalarni yuzaga keltiruvchi vositalar hisoblanadi. Yuklamalar jumla yoki gap ichida lingvistik presuppozitsiyaga ishora qiluvchi va uni reallashtiruvchi eng faol birlik bo‘lib, ularning ma‘nolari pragmatik vaziyatlarga ko‘ra anglashiladi<sup>14</sup>. Presuppozitsiya so‘zning nutqiy vaziyatga va tinglovchida ilgaridan mavjud bo‘lgan bilimlarga tayanib anglatgan ma‘nosi ekanligini nazarda tutsak, bitta yuklamaning kontekstdagi ma‘nosi turlicha bo‘lishi mumkin:

– *Anvar Malayziyada o‘qiyotgan ekan, eshitdingmi?*

So‘zlovchining ushbu axborotiga tinglovchi tomonidan bildirilgan fikrda yuklamaning ma‘noviy presuppozitsiyasini qarab chiqamiz:

– *Anvar-a?(Unga o‘qish nega kerak edi? U juda boy tadbirkor edi-ku)*

– *Anvar-a?(U biz bilgan eng bilimsiz o‘quvchi edi-ku)*

– *Anvar-a?(U juda qashshoq edi-ku. Xorijda o‘qish uchun mablag‘ni qanday topdi ekan?)*

– *Anvar-a?(Ilgari ham boshqa bir xorij davlatida o‘qigan edi-ku)*

Bunda [a] yuklamasining ma‘nosi so‘zlovchi va tinglovchiga nutq vaziyatigacha aniq hisoblangan ma‘lumot orqali aniqlanadi. Yuklamalarda bog‘lash tabiatining mavjud emasligi sababli biz korpusda yuklamalarning matnga qanday mazmuniy munosabatni “yopishtirish”ini, ya‘ni kompyuter hissiyotlarni qanday o‘qishini KL (kompyuter lingvistikasi) fanidagi nisbatan yangi yo‘nalish – sentiment analizda aniqlash yaxshi natija beradi degan xulosaga keldik. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) ning tarmoqlaridan biri qidiruv so‘rovining bog‘liqligiga ko‘ra matnlarni tasniflash, ya‘ni hissiy analiz qiluvchi SA (ingl.sentiment analysis) dir. Matn analizi orqali kishilar tomonidan bildirilgan kayfiyat va munosabatlarni tahlil qilish, monitoring qilish yo‘nalishi sentiment analiz deb yuritiladi<sup>15</sup>.

Sentiment tahlil subyektiv baho yuklamalari *-jon, -oy, -bonu, -bek, -poshsho, -xon, kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari -ku, -u(-yu), -da, -oq(-yoq), -ku, -kim, ham, axir, hatto, hattoki, naqadar, tim, g‘irt, liq, jiqqa* va diskursiv yuklamalar<sup>16</sup> o‘lgur, tushkur, tushmagur, qurg‘ur kabilar orqali ifodalanadi. Sifatlar oldidan keluvchi orttirma va ozaytirma daraja beruvchi yuklamalar ham sentiment tahlil uchun baza vazifasini bajara oladi.

Tadqiqotning I bob, 3-faslida *yordamchi so‘zlarni lingvistik markerlash tizimlari va modellashtirish* tahlil qilindi. Markerlash tushunchasi tilshunoslikda belgilangan so‘z, ibora va gapning grammatik funksiyasini ko‘rsatuvchi erkin yoki bog‘langan morfema ma‘nosida keladi. Markerlarni lingvistik belgi tushunchasidan farqlash lozim. Belgilanmagan shakl so‘zning asosiy “neytral” shakli bo‘lib, odatda uning lug‘at lemmasi sifatida ishlatiladi. Masalan, ingliz tilida otlar uchun birlik (*cat – cats*) va fe‘llar uchun infinitiv (*eat – eats*) shakllar kabi. Ba‘zi tillarda markerlarning bir xil shakllari bir nechta vazifalarni bajaradi.

<sup>14</sup> Пардаев А. Ёрдамчи туркумларнинг субстанциал ва прагматик хусусиятлари. – Тошкент, 2013. – Б. 99.

<sup>15</sup> Abduraxmonova N. Компьютер лингвистикаси. – Ташкент: Nodirabegim, 2021. – В. 346.

<sup>16</sup> Пардаев А. Ёрдамчи туркумларнинг субстанциал ва прагматик хусусиятлари. – Тошкент, 2013. – Б. 32.

Tildagi grammatik belgilarning qanday ishlatilishi generativ tilshunoslikda o'rganilsa, funksional lingvistika grammatik qoliplar, ya'ni *markerlarning* nutqda qanday vazifa bajarishi va qay holda qo'llanilishini tatbiq etadi. Masalan, *bog'ga bormoq* va *bog' tomon bormoq* birikmalarida kelishik va ko'makchi sinonimligi bor bo'lsa-da, aniqlik va maqsadga yo'nalganlik jihatidan mazmuniy farq mavjud. Nutqiy qolip tarkibida yordamchi birliklarning bir necha o'rinda kelishi gapning korpusdagi modelini to'g'ri kiritishni talab qiladi. Aks holda, matn mazmuni oydinlashmaydi. Masalan, "**Xuddi so'z kabi insonning ham yaxshi va yomoni, jamiyatdagi o'rniga qarab turlari ko'p**" tipidagi gaplarda yordamchi so'zlar bir necha o'rinda kelgan. Har bir yordamchi so'z gapga alohida ma'noviy munosabat kiritgan: [*xuddi*, *kabi*] o'xshatish; [*ham*] ta'kid; [*va*] tenglik; [*qarab*] asoslanganlik kabi.

O'zbek tilida morfemalarni korpus uchun markerlash birmuncha mushkul. Chunki ko'makchi morfemalar so'z tarkibiga qo'shib yozilish hodisasi boshqa tillarga nisbatan ko'proq. Ingliz va rus tillarida yordamchi birliklar so'zdan ajralib yoziladi. Masalan, o'zbek tilidagi [*Men stol yonida o'tiraman*] gapi ingliz tilida [*I sit at the table*], rus tilida [*Я сижу за столом*] shaklida ifodalanadi. O'zbek tilidagi <yonida> so'zi ingliz tilida <at>, rus tilida <a> predlogi bilan ifodalandi. Har ikki tilda ham predlog so'zdan ajratib yozilgan va morfemaga ajralmas holatda berilgan. Bu tillarda yordamchi birliklarning so'zga qo'shib kelmasligi markerlashni osonlashtiradi. O'zbek tilidagi morfologik kategoriyalar ingliz, rus tiliga o'xshamasligi, tabiiy. Chunki bu tillar boshqa-boshqa til oilalariga mansub. O'zbek tilida ham so'z shaklidagi [*bilan*], [*kabi*], [*uchun*], [*sari*], [*orqali*], [*sayin*], [*singari*], [*uzra*], [*qadar*], [*haqida*] ko'makchilarini; [*ammo*], [*lekin*], [*biroq*], [*ya'ni*], [*agar*], [*chunki*], [*hamda*], [*va*], [*yoki*] bog'lovchilarini; [*hatto*], [*hattoki*], [*axir*], [*nahot*], [*nahotki*], [*faqat*], [*naq*], [*xolos*], [*xuddi*] kabi yuklamalarni mashina xotirasiga kiritish birmuncha yengil. Buning sababi quyidagilarda ko'rinadi:

- 1) sof yordamchi ekanligi;
- 2) so'zdan ajratib yozilishi;
- 3) omonimlik xususiyatining yo'qligi;
- 4) polifunksionallik vazifasida emasligi.

So'z shaklidagi yordamchilar markerlanishida polifunksionallik qoidalari 1.4-jadvaldagi kabi kiritiladi:

#### 1.4-jadval

#### Markerlashda maxsus qoidalarni talab qiluvchi qo'shimcha shaklidagi yordamchilar

Belgi tanlashda amal qilinishi lozim qoidalar	Qo'shimcha shakldagi yordamchilar
Bog'lovchi va yuklama vazifasida kelishiga ko'ra	<i>-ki, kim, -u, -yu, -da, -a</i>
YS turkumi va shakl yasovchi kategoriya sifatida omonimligi	<i>-a, -gina, -kina, -qina, -chi, -oq, -dir, -ov</i>
So'zga qo'shib yozilishi	<i>-gina, -kina, -qina, -oq, -dir, -ov, -mi, -ki, -kim, -dek, -day, -dayin, -gacha, -cha</i>
So'z shaklidagi yordamchilarning matnda qo'shimcha shaklda kelishi	<i>-la (bilan), -chun (uchun)</i>
So'zdan chiziqcha bilan ajratib yozilishi	<i>-a, chi, -u, -yu, -da, -ku</i>

Matnda keluvchi ayrim yordamchilarning soʻz tarkibida fonetik oʻzgarishga uchrashi ham morfemalarga ajratishni murakkablashtiradi. *Chin<sup>(ot)</sup>i<sup>(eg.q)</sup>minan<sup>(koʻm)</sup> yiqil<sup>(feʻl)</sup>di<sup>(zam.q)</sup>m<sup>(tusl)</sup>mi<sup>(yukl)</sup>-a<sup>(yukl)</sup>, chin<sup>(ot)</sup>i<sup>(eg.q)</sup>minan<sup>(koʻm)</sup>mi<sup>(yukl)</sup>-a<sup>(yukl)</sup>?... T.Murod).*

Koʻrib turganimizdek, bitta gap tarkibida yordamchi birlik olti oʻrinda soʻzga qoʻshilib yozilgan. Bu oʻzbek tili grammatik xususiyatidan kelib chiqib yordamchi soʻzlarning alohida markerlanish qoidalarini yaratish zaruratini belgilaydi.

Dissertatsiyaning “*Yordamchi soʻzlar bazasining arxitekturasi va funksiyasi*” deb nomlangan II bobining 1-faslida oʻzbek tili yordamchi soʻzlar bazasining umumiy tavsifi keltirildi. Dunyo tilshunosligida yordamchi soʻzlar va ularning lingvistik xususiyatlarini oʻrganish yuzasidan bir qator tadqiqotlar qilingan. Ulardan qoʻmiq va ingliz tilida A.Greyeva, rus tilida G.Kreydlin, slavyan tilida T.Nikolayeva, boshqird tilida X.Sultonboyeva, ozar tilida N.Manafov, qozoq tilida F.Kenjebayeva, ayrim turkiy tillar boʻyicha F.Zeynalovning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi<sup>17</sup>.

O.Bozorov yordamchi soʻzlarning matndagi leksikalizatsiyadan bogʻlash vazifasiga qarab oʻsishi haqida shunday yozadi: “Umuman, semantik konkretlikdan abstraktlikka, erkin qoʻllanishdan qoʻllanish doirasining torayib (ixtisoslashib) borishiga koʻra yordamchi soʻzlar tizimida quyidagicha darajalanishni koʻrish mumkin: *yuklamalar* → *koʻmakchilar* → *bogʻlovchilar*. Ushbu darajalanish qatorining oʻzi leksik semantikaning kuchsizlanib, sintaktik vazifaning (bogʻlash) tobora mustaqillik kasb etib borishini ham koʻrsata oladi”<sup>18</sup>. Koʻrinadiki, olim yordamchilarning eng asosiy vazifasi bogʻlash ekanligini eʼtirof etadi. A.Pardayev yordamchilarning inson nutqida paydo boʻlishi yuzasidan olib borgan izlanishlari davomida darajalanishni quyidagicha koʻrsatdi: *yuklamalar* → *bogʻlovchilar* → *koʻmakchilar*<sup>19</sup>. U inson nutqida birlamchi yuklamalarning, ikkilamchi bogʻlovchilar va soʻnggi oʻrinda koʻmakchilar paydo boʻlganligini yozadi. Y.Abdurasulov esa bogʻlovchining kishilik taraqqiyotining keyingi davrlarida paydo boʻlganligini, shuning uchun miqdor jihatdan nutqda kam ekanligini yozadi<sup>20</sup>. Biz oʻrganishlarimiz natijasida Y.Abdurasulovning nazariyasi ilmiy haqiqatga yaqinroq degan xulosaga keldik. Chunki izlanishlarimizda jami 434 ta yordamchi soʻzga nisbatan olinganda koʻmakchilar 56%, yuklamalar 30%, bogʻlovchilar esa 16% ekanligi aniqlandi.

Koʻmakchilar haqidagi tadqiqotlarda sifat koʻmakchilar haqida ilmiy qarashlar keltirilmagan. Biz [*boshqa*], [*oʻzga*], [*boʻlak*] kabi soʻzlarni sifat koʻmakchilar sirasiga kiritdik. Chunki bu soʻzlar zikr qilingani, aytilgani, koʻrilgani yoki koʻzda tutilgani emas degan maʼnolarda kelib sifatlovchi vazifasida qoʻllanadi. *Oʻzga makon, oʻzga zamonda, Mavjud boʻlgan olis yulduzlar...E.Vohidov.* Ushbu soʻzlar [*ortiq*],

<sup>17</sup> Герева А. Служебные слова в кумыкском и английском языках: послелого и союзы: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Махачкала: ДагГПУ, 2004. – 22 с.; Крейдлин Г. Служебные слова в русском языке: (семантические и синтаксические аспекты их изучения): Дис. ... канд. филол. наук. – Москва: МГУ, 1979. – 301 с.; Николаева Т.М. Функции частиц в высказывании (на материале славянских языков). – Москва: Наука, 1985. – 168 с.; Султанбаева Х. Служебные слова в системе частей речи башкирского языка: Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2008. – 54 с.; Манафов Н. Служебные части речи в диалектах и говорах азербайджанского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Баку: БГУ, 1995. – 28 с.; Кенжебаева Ф. Послелого и частицы в современном казахском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата: ИЯ, 1964. – 28 с.; Зейналов Ф. Служебные части речи в современных тюркских языках: Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. – Баку: БГУ, 1966. – 82 с.

<sup>18</sup> Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол.фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 161.

<sup>19</sup> Пардаев А. Ёрдамчи туркумларнинг субстанционал ва прагматик хусусиятлари. – Тошкент, 2013. – Б. 67

<sup>20</sup> Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 212.

[*tashqari*] soʻzlari bilan bir sinonimik qatorda, asosan, chiqish kelishigidagi soʻzlar bilan birga qoʻllanganda koʻmakchi vazifasini bajaradi. [*Boʻlak*], [*oʻzga*], [*ortiq*] soʻzlari koʻproq ogʻzaki nutqqa xos, ammo anchayin kam qoʻllanadi<sup>21</sup>. *Mendan boshqa xotin boʻlsa, Zaynabingiz bilan birinchi kundanoq arazlashar edi... A.Qodiriy.*

Tadqiqotning II bob 2-faslida *yordamchi soʻzlarning manba va davriylik chegarasini belgilash tamoyillari* haqida soʻz yuritdik. Turkiy tillarda yordamchi soʻzlar tarixan mustaqil soʻz turkumlaridan kelib chiqqan. Shuning uchun ham yozma yodgorliklar til materialida baʼzi soʻzlar ham mustaqil, ham yordamchi birlik sifatida qoʻllangan. Eski oʻzbek tiliga xos yordamchi birliklarni berishda biz A.Yassaviyning “Devoni hikmat”idan foydalandik<sup>22</sup>. Devonda faol qoʻllangan yordamchilar 2.1-jadvalda berildi.

## 2.1-jadval

### *Eski oʻzbek tilida faol qoʻllangan yordamchilar*

1	Koʻmakchi vazifasida qoʻllangan soʻzlar	<i>sori, sari, soʻng, soʻngra, qoshigʻa, qoshinda, keyin, bobinda, bobida, uzra, birlan, birla, bilan, bila, ila, uchun, -chun, ichra, tegrasida, kabi, yangligʻ, tigin, taginda, tegrasida, tegrasinda, orqa, orqaga, oʻzga, aro, ora, yoʻliga, yoʻlda, burun...</i>
2	Bogʻlovchi vazifasida qoʻllangan soʻzlar	<i>ham, -kim, -ki, -u, -yu, va, vale, agar, -vu, deb, to, toki, na...na, gohi...gohi, ammo, biroq, gar, garchi...</i>
3	Yuklamalar	<i>-da, -oʻq, balki, -mu, magar, koshki...</i>

Qadimgi turkiy tillarda bogʻlovchilar boʻlmagan. Agglyutiv tizimda boʻlgan barcha tillar, jumladan, turkiy tillar uchun ham bogʻlovchilarning mavjud emasligi u qadar sezilmagan, chunki ularning vazifasini boshqa turkumlardagi turli soʻzlar bajargan<sup>23</sup>. Ammo “Devoni hikmat”da bogʻlovchilar faol qoʻllanilgan va eski oʻzbek tiliga mos keladi: *Aqlu hushin dono qilib yurur boʻlgʻoy (59-b). "Voshuqo!", deb qir ichinda yurur boʻlgʻoy (61-b). Mavlosiga rozlashti, yo Mustafu Muhammad (66-b). Ey yoronlar, yaxshi qoling, to koʻrguncha (76-b).*

Yordamchi soʻzlarning qadimgi turkiy til davridagi shakllari va ishlatilish koʻlami Gʻ.Abdurahmonovning “Qadimgi turkiy til” qoʻllanmasida ilmiy yoritilgan<sup>24</sup>. Ushbu qoʻllanmani oʻrganish jarayonida qadimgi turkiy tilda ham yordamchilar matnda gap va soʻzlar orasida mazmuniy munosabatlarni ifodalashga xizmat qilganligini kuzatdik. Oʻzbek tilining ilk davrlariga oid yordamchi soʻzlarni oʻrganishda Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻotit turk” asari qimmatli yozma manba hisoblanadi. Asarda hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi chegara maʼnosida keluvchi [*qadar*] koʻmakchisi vazifasida [*egin*] va [*tegu*] soʻzlari kelgan. [*Tagʻi*] hozirgi oʻzbek tilidagi [*yana*] daraja-miqdor ravishi va [*ham*] yuklamasi maʼnosida kelgan. Ammo U.Sanaqulov bu soʻzni koʻmakchi deb tasnif etganki, biz bu notoʻgʻri talqin degan fikrdamiz<sup>25</sup>. Chunki

<sup>21</sup> Oʻzbek tili sinonimlarining katta izohli lugʻati. – Toshkent, 2022. – B. 147.

<sup>22</sup> Хожа Аҳмад Яссавий. “ДЕВОНИ ХИКМАТ” (*Янги топилган намуналар*). – Тошкент: Мовароуннахр, 2004. – 83 б.

<sup>23</sup> Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 212.

<sup>24</sup> Абдурахмонов Ф. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 90.

<sup>25</sup> Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихининг ilk даврлари. – Тошкент, 2004. – Б. 155.

devondagi gap mazmuni bu soʻz koʻmakchi emasligini isbotlaydi: *Taqyi jarmaq ber (Yana tanga pul ber)*.

Til taraqqiyotining turli davrlarida qoʻllanilgan yordamchi soʻzlar mualliflik korpuslarida beriladi. Shu asosga koʻra yordamchi soʻzlarning chastotasini aniqlash va onlayn lugʻatini tuzishda turli uslubdagi mustaqillik davri hamda hozirgi oʻzbek adabiy tili matnlariga murojaat qilishni maʼqul topdik, yaʼni ishimizga sinxron yondashdik. Bu boradagi izlanishlarimizda rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslubga xos 20000 ta soʻzdan iborat 20 ta matndan foydalandik.

Dissertatsiyaning II bob 3-fasli *yordamchi soʻzlarning lingvistik parametrizatsiyasi, interfeys va qidiruv tizimi* haqidagi tahlillardan iborat. Oʻzbek tilida yordamchi soʻzlar leksik maʼnoli morfema va koʻmakchi morfemalar orasidagi “oraliq uchinchi” xususiyatiga egaligi uchun ayrim tilshunoslar yordamchi soʻzlarni koʻmakchi morfema, yaʼni qoʻshimchaga, baʼzilarini nutq boʻlaklariga yoki yordamchi soʻzga nisbat beradilar. Bu, oʻz-oʻzidan, yordamchi soʻzlarning parametrlarini belgilashda qiyinlik tugʻdiradi<sup>26</sup>. Korpus uchun tanlangan matnlarda yordamchilarning matndagi vazifadoshligi va grammatik almashinuvi alohida modellarda berilishi matn mazmunini oydinlashtiradi. Ushbu grammatik almashinuv 2.2-jadvalda berildi:

### 2.2-jadval

#### Sof yordamchi soʻzlarning ichki vazifadoshligi

№	Yordamchi soʻz	Koʻmakchi	Bogʻlovchi	Yuklama
1	-u		+	++
2	-yu		+	++
3	-da		+	++
4	na, ...na		+	++
5	bilan	++	+	
6	agar		+	++
7	ammo		+	++
8	-ki		+	++
9	-ku		+	++
10	ham		+	++
11	-mi		+	++
12	faqat		+	++
13	goʻyo		+	++
14	toki		+	++
15	-a		+	++

Ushbu jadvalda ayrim sof yordamchilarning ikkinchi yordamchi birlik sifatidagi vazifadoshligi berildi. Soʻzning oʻzbek tilida birlamchi turkumi ++ belgisi bilan, boshqa soʻz turkumi vazifasida kelishini, yaʼni vazifadoshligi + bilan belgilandi. Yordamchi soʻzlarning parametrlari va funksional vazifalari matn tarkibida bajarayotgan vazifasiga qarab belgilanadi. Ularni modellashtirish va interfeysini berish sintaktik qurshovda qanday soʻzlar orasida kelishiga qarab belgilanadi. Masalan, koʻmakchini aniqlashda uning quyidagi modelini berish mumkin:

1. *Ot+koʻmakchi+feʼl*
2. *Sifat+koʻmakchi+feʼl*
3. *Sifatdosh+koʻmakchi+feʼl*

<sup>26</sup> Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2010. – Б. 253.

4. *Harakat nomi+ko‘makchi+fe‘l*

5. *Son+ko‘makchi+fe‘l*

Ushbu modellar shu shaklda davom ettiriladi.

“Interfeys” inglizcha so‘z bo‘lib, bizning lug‘atimizga kirib kelishi XX asr 90-yillarning o‘rtalarida shaxsiy kompyuterlar va informatika kurslarining keng qo‘llanilishiga bog‘liq. Bu atama noaniq, ammo uning o‘ziga xos ma‘nosi inson va kompyuter o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning turli usullariga to‘g‘ri keladi. Interfeys – bu foydalanuvchiga kompyuterning barcha funksiyalarini boshqarish imkonini beruvchi vositalar to‘plamidir<sup>27</sup>. Masalan, yordamchi so‘zlar korpusining interfeys oynasida 2.3-jadvaldagi kabi parametrlar aks etishi mumkin.

2.3-jadval


### Yordamchi so‘zlarning interfeys parametrlari

Bilan		Boshqa so‘zlar bilan bog‘lanish paradigmasi	
Turkumi	Ko‘makchi	Bosh kelishikdagi fe‘l bo‘lmagan mustaqil so‘zlar + <i>bilan</i> + fe‘l <i>Qalam bilan chizmoq; sen bilan bahslashmoq</i>	
Boshqa so‘z turkumi vazifasida kelishi	Bog‘lovchi vazifasida	Fe‘l bo‘lmagan mustaqil so‘zlar + fe‘l bo‘lmagan mustaqil so‘zlar <i>Men bilan onam; qalam bilan ruchka; oldi bilan orqasi...</i>	
Ma‘nodoshi	Mavjud emas	Etimologiyasi	Eski turkiy tilda <i>ila, birla, birlan</i> , shaklida; shevada <i>minan</i> shaklida ishlatilgan
Variantlari	<i>-la, ila, birla, birlan, minan.</i>	Yuklagan ma‘nosi	Ish-harakatning tarzi, holati, birgalik, hamkorlik, vosita ma‘nolarini bildiradi. <i>Hassa bilan ochmoq (vosita) zavq bilan o‘qimoq (holat) onam bilan bormoq (birgalik)</i>

Ushbu jadval uslubiy xoslik, omonimlik, shakliy tuzilish va qo‘llanishiga ko‘ra kabi oynalar bilan to‘ldirilishi mumkin. Interfeys har qanday lingvistik baza haqida ilk taassurot qoldiradigan, undan foydalanishning boshlanish nuqtasi bo‘lganligi sababli uni loyihalashtirish muallifdan katta mas‘uliyat talab qiladi. Yordamchi so‘zlarning interfeysini aynan yuqoridagi jadval asosida berish majburiy emas. Biz tuzgan elektron lug‘at interfeysi “Yordamchi so‘zlar”, “Ko‘makchi”, “Bog‘lovchi”, “Yuklama”, “Qidiruv” va “Dastur haqida” kabi oynalardan iborat bo‘ldi. *Auxwords.uz*<sup>28</sup> onlayn bazasining bosh sahifasi 2.1-rasmdagi holatda berildi.

<sup>27</sup> Xamrayeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. – Toshkent, 2020. – B. 66.

<sup>28</sup> <https://auxwords.uz/>



2.1-rasm. *Auxwords.uz* yordamchi soʻzlar veb ilovasining bosh interfeysi

Dissertatsiyaning “*Yordamchi soʻzlar bazasi fragmentini tuzish masalalari*” deb nomlangan III bobining 1-fasli *yordamchi soʻzlarning representativligi* haqidagi ilmiy tahlillardan iborat. Representativlik har qanday lingvistik bazaning ishonchlilik xususiyatini belgilaydigan birinchi talabdir. Ilk yaratilgan korpuslarning katta qismi badiiy va publitsistik uslubdagi matnlardan iborat edi. Ammo keyingi avlod korpuslari juda katta qamrovga ega va ular faqat matnlardan iborat emas. Masalan, oʻzbek tilining taʼlimiy korpusida turli mavzuga oid 69 ta maʼnaviy-maʼrifiy video, 34 ta sheʼr, 3284 ta soʻzdan iborat audio lugʻat, 8736 ta faol soʻz, xorijliklarning til oʻrganishiga moʻljallangan turli joylarda murojaat qilish haqida tayyorlangan 35 ta videotasvir joylangan.

